

Isajon Sulton

# ABU RAYHON BERUNIY

*tarixiy-biografik roman*



**Toshkent - 2022**

## TO'QQIZINCHI QISM

### G'AZNI. SHOIRLAR VA OLIMLAR

Endi men, zakovat quyoshi, aziz xojam Abu Rayhon Beruniy zikriga qaytaman.

Xorazmliklar va sulton Mahmud o'rtasida shunday qattiq jang bo'ldiki, go'yo "quyosh o'ralib, nursizlanib qoldi". Yeru ko'kni urush suroni va to'zoni qoplab, "tog'larchang kabi suzib yurdi". Mo'min-musulmonlarning qoni daryo bo'lib oqib, Jayhunni to'ldirdi, azim daryo o'zanidan toshib chiqdi.

Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmg'a Amir Oltintoshni voliy qilib tayinlab, yillik o'lpon miqdorini ma'lum qildi. Bir qancha kishilarni, shuningdek, olimlar ustoziga Abdussamat Avval al-Hakimni qarmatiy va kofir deb ayblab, o'limga buyurdi. Shubha sirtmog'i bo'yniga tushganlar orasida Abu Rayhon ham bor edi, degan gap-so'zlar tarqaldi. Aytishlariga qaraganda, a'yonlardan kimdir "Bu Abu Rayhon deganlari yulduzshunoslikda o'z zamonining peshvosi, podshohlarning undaylarga ehtiyoji zo'r bo'ladi", degach, hibsga olingen lashkarboshilar va ularning bolaschaqasi, usta hunarmandlar bilan bir qatorda, "Dorul Hikma" olimlariga ham G'azniga qarab yo'lga chiqish buyurildi.

Azbaroyi Xudo, men bu haqda mish-mishdan boshqani eshitmadim. Sulton Mahmud Gurganjda ekan, Abu Rayhonga ham, boshqa olimlarga ham hech kim tahdid qilmadi, aksincha, sultonning vaziri Abul Hasan ularning barchasi bilan yaxshi muomalada bo'ldi, ko'ngilni ko'taruvchi so'zlar aytib, allomalarning xavotirini ketkizdi.

Olimlar yo'lda ekan, sulton Garchustonga qarab yo'l oldi.

Bu safar u qo'shinni qal'a qarshisiga yoymasdan, manzilga bir farsah qolganida o'ng va so'l qanotni birlashtirdi-da, to'xtovsiz hujumga o'tishni buyurdi. Buni ko'rgan Garchuston amiri, agar qo'shin ilg'ori shunday bo'lsa, asosiy qo'shin qanaqa ekan deb

qo'rqib qoldi. Yuzlab fillar va minglab suvoriylar qal'a devorlari va darvozalarini shunday shiddat bilan buzib kirdiki, istehkom himoyachilari darhol quollarini tashlab, taslim bo'lishdi.

Garchuston ahli o'z hukmdorini, forsiylar xudovand, yunonlar qaysar, arablar sulton degani kabi, sha'r deb atashardi. Sulton Mahmud Garchuston sha'rining bo'yniga g'ul urib, G'azniga jo'natdi va qal'aga qamabqo'ydi.

\* \* \*

Sulton Mahmud saroyi yer yuzidagi ko'shklarning eng muhtashami edi.

Saroy xonalari uch yuzta bo'lib, agar ko'shk chetidagi kichik hujralarni ham qo'shib hisoblasa, besh yuz hujrasi bor edi. Faqat ungagina xizmat qiladigan xos g'ulomlarining sanog'i yetti yuz, xos nadimlari esa sakkiz kishi edi. Saroy sharqidagi hujralarda kichik munshiyilar, hurmat-e'tibordagi shoir va olimlar istiqomat qilishardi. Sultonga yoqish va nazariga tushish istagidagi kishilar olis-yaqin mamlakatlardan anvoyi daraxt va gullarni olib kelib saroy sahniga qadashgan, bog'bon ularni shoyon jon kuydirib parvarishqilib, ko'r kam bir bog' barpo qilgan edi. Ko'hi Safed deyilgan tog'dan amir yoqtiradigan xush isli qarqara va archalar keltirildi. Rajalurning yashil, Kobulningmoviy, Gurgonning sariq va kulrang marmaridan qurilgan sakkiz va o'n olti qirrali hovuzlarning qubbachalaridan favvoralar otilib turardi. G'azni qishi sovuq kelgani uchun, me'morlar yopiq bog'cha hambarpo etishgan, ulkan ravoq ostidagi baland eshikdan kirgan kishi birdaniga o'zini anvoyi bog'da ko'rardi. Ikki tomoni shisha darchali bu bog'da ko'k lagan norinj, xurmo va limu og'ochlari oralab o'tib borilsa, sulton Mahmudning olti burchakli qiroatxonasiga duch kelinardi.

Xorazm olimlari yetib kelgani xabarini berishganida, u qiroatxonada Shayx Mamshod Dinovari bilanso'zlashib o'tirardi.

Shayx Mamshod baquvvat jussali, uzun soqoli ko'ksiga tushgan kishi bo'lib, asli ismi Muhammadshod, tili kelishmaganlar uni "Mamshod," ba'zan "Hamshod" deb ham atashar, chuqr bilimli, keng fikrli yetuk olim edi.

Suhbat davom etarkan, xos g'ulom vazir Abul Hasan kirishga ruxsat so'rayotganini ma'lum qildi. Ruxsat bo'lgach, vazir kirib keldi-da, ta'zim qilib, Gurganjdan asirlar va olimlar yetib kelishganini aytди.

– Asirlar Gurek qal'asiga hibs qilinsin, – deb buyruq berdi sulton Mahmud.

– Sultonim, olimlar bilan qachon so'zlashishni istaysiz? – deb so'radi vazir.

– Bir-ikki hafta kutishsin, – deb javob qildi Mahmud G'aznaviy. – Bu orada qaysi biri biz uchun nimalar qila olishi haqida o'ylab ko'r. Shayx Mamshodva boshqa ulamo ular bilan suhabatlashsin, bilimlari vamazhabini tadqiq qilishsin.

So'ng esiga tushib, so'radi:

– Anavi, qochib ketgan buxorolik tabibdan xabar bormi? Uning ismi Husayn, laqabi Abu Ali, taqdiri ayanchlibo'lmish, – deb javob qildi Abul Hasan. – Suratidan qirqta chizdirib, ixtiyorингиздаги viloyatlarning dorug'alariga tarqatganimizga qaramay, qal'alar va yo'ldagi qorovulkxonalarни aylanib o'tib, cho'l va dasht oralab yashirinib yura-yura, Hamadonda panoh topibdi. Sherigi Abu Sahl Masihiy esa, sahroni kesib o'tish vaqtida suvsizlik va ochlikdan halok bo'libdi. Buni bizga Ray va Hamadondan kelgan kishilar so'zlab berishdi.

– Aybi bo'lmasa, nechun qochsin? – dedi Mahmud G'aznaviy.

– Vaqti kelsa, Ray va Hamadon ham ixtiyorimizga o'tgay. U o'lkalarda bir qancha qarmatiy bor deb eshitdik. Yer yuzida bironta qarmatiyni qoldirmayman degan va'damizga muvofiq, olamni ulardan tozalaymiz va Makkadagi beizzatona qilmishlari uchun jazosini beramiz.

Sen kelgusi juma kuni, shomdan keyin shoirlar va olimlarni to'pla. Zafarlarimizni, islom dinining ravnaqi uchun qilgan ishlarimizni qanday madh etishibdi, tinglaylik. Olimlar bilan ham o'shanda tanishgaymiz.

Vazir ta'zim qilib, qiroatxonadan chiqdi.

Shayx Mamshod chiqishga izn so'radi. Sulton unga bosh irg'ab ruxsat berarkan, bog'dagi tovuslardan biri yoqimsiz qichqirdi.

- Tavba, shunday chiroyli narsa, ovozining xunuk- ligini ko'r,
- dedi sulton Mahmud. - Xudo haqqi, ba'zi kishilar ham shunga o'xshaydi. Shamoyiliga qarab hurmatga sazovor deb o'ylaysan, biroq, so'zini eshitib, yanglishganiningni anglab yetasan.

## ZAROFAT OQSHOMI

Aytilgan kuni vazir Abul Hasan Feruza bog'idagikatta ravooq ostiga keng-mo'l ziyofat tuzadi. Yeb-ichilgach, shoirlar va olimlar o'z joylariga o'tirishdi. Barcha Amirning tashrifini kutardi.

Mahmud G'aznaviy miqtı gavdali, quvvatli kishi edi. Kaftlari katta-katta, barmoqlari va kafti tig'-qalqontutish va yoy otishdan qadoq, yuzi safar shamollaridaqoraygan, istarali, qizg'ish soqolli bo'lib, peshanasidasajda izi bor edi.

Xaloyiq orasida sulton Mahmudning baytu g'azalni teran anglashi, shuningdek, Kalom va hadislarga sharh yozishi ma'lumu mashhur edi. Lekin hozir supaga olim vafozil shoh emas, fotih va g'oziy hukmdor kelib o'tirdi.

Shu asnoda shivalab yomg'ir tomchilay boshladi.

Barcha avvaldan tayin qilingan o'rnini egalladi. Yanabir qancha kishilar tik oyoqda turishar, ularga o'tirishgaruxsat berilmagan edi. Xorazmdan kelgan olimlar ham tik oyoqda, ikki yuz kishi to'plangan bu muazzam yig'innitmosha qilib turishardi.

Mushoira qasida bilan boshlandi. Nadimlar va hojiblar qatoridagi malikushshuaro Unsuriy o'rnidan turib, madhu sano minbariga yaqin kelib, sultonga ta'zim qildi-da, badiha tarzida shunday bayt o'qidi:

*Ko'rurmen, xizmat aylarlar amirimga  
Bulutlar – abri naysonlar va boronlar:  
G'ubor-chang bermasin ozor yurishlarda  
Deya yo'llarga suv sochmish magar onlar.  
Amirimdan yiroq hech tushmasin, omin:  
Shabobu shohligu ham shavkatu shonlar!<sup>1</sup>*

Ulamo va umaro bir ovozdan "Omin" deb duo qildi.

<sup>1</sup> Masnaviy va ruboilarni shoira Nodira Afoqova tarjima qilgan.

Taomilga ko'ra, majlis hikmat ila boshlanishi lo- zim edi. Avvalgi yig'indan so'ng o'tgan vaqt mobaynida hakimlar va shoirlar o'zлari guvoh bo'lган, kitoblardan o'qigan, shahar va qishloq kishilardan eshitgan hikmatli va ibratli voqealardan hikoya qilib berishlari lozim bo'lib, bu shundayki, avval kimdir aytgan yoki kito-bida bahs etgan hikmatni aytishning chorasi yo'q edi.

Unsurui ham duo qildi-da:

- Ey saodatli shoh, - dedi. - Shu o'tgan kunlarning birida qattiq betob bo'lib qoldim. A'zoyi badanim isitmada lovullab yonardi. Hatto idrokim sog'lom paytimdagidan bo'lak bo'lib qoldi, butun fikru zikrimshu azobdan qutulish edi.

To tonggacha shunday azoblandim. Tong mahali ko'zimgabir oz uyqu ilindi. Uyqudan uyg'ongach, vujudimda zarra majol qolmaganini bildim. Hatto guruchni suvga qaynatib bersalar-da, yeya olmadim. Ammo tungi azobdan qutulib, idrokim o'zimga qaytgan, mulohazam quvvatli, xayolim avvalgidek, faqat tanamda mador yo'q edi, xolos. Shunda men o'z-o'zimga aytdim: "Shunday sinalmasa, inson o'zining nimaligini qaerdan ham anglardi?" Mening bu so'zlarim holimdan shikoyat emas, balki, dardga yo'liqqanim uchun vujudimda sodir bo'lган o'zgarishlar aslida mening Tangrini tanishim uchun bir tadbir ekanini o'yladim. Yaratgan Parvardigorim dard bergani chog'da, vujud qanchalar zaiflashsa, ruh shunchalar quvvatlanishiga shohid bo'ldim. Ulug' Alloh dardlarni ne uchun berishini anglab yetdim.

- Yaxshi aytding, - dedi sulton Mahmud. So'ng so'radi:

- Sen menga "Ey saodatli shoh" deb murojaat qilasan. Vaholanki, mening saodatli yoki saodatli emasligim senga ma'lum emas. Zamona hukmdorlarining saroyida har birining o'z shoirlari va hakimlari bor, ular ham o'z amirlariga shunday madh aytishlari turgan gap. Biroq sen saodatli deb atagan kishilarning ko'pi mol-mulk talashib, bir-biriga tig' ko'targan va mo'min qonini to'kkан kimsalardir. Shunday ekan, bunday deyishing aqlga muvofiqmi? Masalan, seni bu yerdan chiqarib, Shamsulmaoliy huzuriga yuborsak ham, shu so'zni aytasanmi?

- Podshohlar Tangrining yer yuzidagi xalifalaridirlar.

Ular uchun adolatli hukumatdan ortiq martaba yo'q. Chunki hadisda aytilganki, "Odil podshohning bir soatliz qilgan ibodati boshqalarningbir yil tutgan ro'zasi va namozidan ortiq". Yana bir hadisda "Mahshar kunida yetti tur kishi Tangri taoloning soyasida bo'ladilar. Shulardan birinchisi odil podshohdir". Yana birida: "Allohga yaqinroq va do'stroq bo'lgan kishi adolatli va insofli podshohdir. Uning bir vaqt o'qigan namozi boshqalarning yetmish ming vaqt o'qigan namoziga teng". Shunday bo'lgach, podshohlikdan ortiq Xudoning yana qanday ne'mati borva buni saodat demay tura olamanmi?

– Bu so'zlaring uchun seni taqqirlasak arziydi, – dedi Mahmud G'aznaviy va buyurdi: – Bir zarb of to'n va tilla kamar keltiring!

Malikush-shuaro Unsuriy hikmat bobini yakunlashga ruxsat so'radi. Ruxsat bo'lgach, shunday ruboiy o'qidi:

*Shohdursan, qo'lingda Sharq ila G'arb,  
Juhud, tarso, musulmon, o'tparastlar.  
Hama tasbeh o'girgay va degaykim:  
Illoho, ayla Mahmudni muzaffar!*

Ruboiydan sultonning ko'ngli xushnud bo'lib, HojibAliga qarab, hazilomuz dedi:

– Bu shoirning og'zini dur va yoqut bilan to'ldiring!  
– Bosh ustiga! – darhol javob berdi Hojib Ali.  
– Ey saodatli sultonim! Faqir bu kunga qadar Tangrim menga bergen jussa va og'izdan hech shikoyat qilmaganman, endi ham shikoyat qilmayman. Lekin mening bir og'zimni besh deb hisoblappingizni so'rayman!

Kulgi ko'tarildi.

– Nega sening bir og'zingni besh deb hisoblashimiz kerak? – deb so'radi sulton Mahmud, kulgidan o'zini tiyib.

– Faqiringiz shu kunlarda "Shodbahru Aynulhayot" va "Vomiqu Uzro" degan dostonlarimni yozmoqdaman va ularni, albatta, nazaringizga yetkazish uchun mushtoqman. Yana, Bomiyondagi ikki haybatli but haqida "Xingbutu Surxbut" dostonimni ham bitmoqdaman. U butlarni hech kim nazarga ilmasligi aniq, biroq to'rt musulmonning, ya'ni Shodbahr va

Aynulhayot, Vomiq va Uzroning ham og'zi menga qarab turibdi!

Barcha qahqaha otib kulib yubordi.

Aslida, bu so'z o'yinining tarixi ancha avval ro'y bergan boshqa bir voqeaga borib taqalardi. O'shanda, G'aznidan Kobul tarafga qarab shikorga chiqilganida,sulton Mahmud kamand solib juda chiroyli bir ohu ovлади, uning peshanasi va har bir tuyog'ida oqi bo'lib, xuddi kumush bilaguzuk taqib olganga o'xshardi. Sulton shodlanib, "Kim shu ohu haqida munosib bir bayt aytса, og'ziga siqquncha dur-javohir hadya qilingaydir", dedi. Shoirlardan Gardazoniy haqiqatan ham ajoyib ruboiy aytdi. Hamma endi sulton "Og'zingga siqqanini ayt, qancha dur-yoqut tilaysan?" deb so'rashini kutar edi, biroq sulton shikorboshi hojibga qarab: "Buning og'zini tilla tanga bilan to'ldiring", deganida va Gardazoniy ko'proq tanga sig'ishi uchun og'zini iloji boricha katta ochib turganida, kulaverib barchaning ichagi uzilayozdi. Unsuriy shunga ishora o'laroq, amirga o'zi yozayotgan dostonlarning qahramonlarini ro'para qilmoqda edi.

Amir Mahmud javob qildi:

– Biz so'zimizdan qaytmaymiz. Aytgan kishilaringni huzurimizga olib kelsang bas, ularning og'zini ham shuncha dur-yoqut bilan to'ldirgaymiz.

Qasida va hikmat bobi tugagach, madhiya va vasfiyaga navbat keldi.

Vasfiya – o'ziga yoqqan yoki e'tiborini tortib, zavqlantirgan barcha narsaga vasf aytish edi. Kimdir bahorni ohuga, ohuni go'zal joriyaga, joriyani taqdirga o'xshatib va taqdirni vafosizlikda ayblab she'rлar o'qisa, yana kimdir tong va tun, chiroq yoki sham misolida kimgadir yoki qaysi bir voqeaga ishora qilib bayt aytardi. Vasfi bahorni damg'onlik yoshgina yigit – Manuchehriy davom ettirdi:

*Gul fasli jahon misli sanam – dilbaru dildor,  
Farxor buti, ey! Tur-da, olib kel guli bexor.*

*Ul gulki, huzur birla ani bo'yini bo'ylab,  
Chehram ochilur misli gulu, misli guluzor.*

*Ul gulki, shajar bo'lsamu, payvand bo'lib ul,*

*Tan tan bila topishsa edi, vah, bayakbor.*

*Ul gulki, ani girdida zanbur urib charx,  
Shah girdida misli yig'ilib jumlayi ahror.*

*Yuz bursayu gul sorig'a bol dardida zanbur,  
Gul ham yuzini bursa samar bo'lgali zinhor.*

*Gul soyasida ichsa kishi bir mayi gulgun,  
Bo'rondagi bulbul kabi ham o'qusa ash'or.*

G'azal balog'ati va nazokati shunchalar ediki, barcha ohurib tingladi.

– Sening “Sham'yait” qasidang manzur edi, vasfi bahorni ham yaxshi aytding. Mukofotingni vazir Abul Hasandan talab qilgaysan!

Navbat yosh shoir Farrux Seyistoniyga keldi.

Bu shoirning taqdiri qiziq: u o'n besh yasharligida Seyistondan Chag'oniyon amiri qoshiga kelgan edi. O'sha mahalda yangi tug'ilgan qulunlarni tamg'alash marosimi bo'lib, Chag'oniyon amiri shu sababli dashtga ketgan edi. Uniqqan eski pirohan kiyib, Seyiston urfiga ko'ra, ulkan salsa o'rab olgan bu ozg'in yigit Amir a'yonlaridan hojib Asad bilan so'zlashadi. Hojibning “Qaerdan, qanday kelding?” degan savoliga ushbu bayt bilan javobberadi:

*Libos karvoni-la chiqdim Seyistondin,  
Liboskim, to'qilmish tan ila jondin.*

Hojib bayt nafosatidan hayron qolib, “Men seni Amirga yuzlashtiraman, biroq, sen uning sha'niga zamonaahli eshitmagan bir qasida bitishing kerak”, deb shart qo'yadi. Farrux Seyistoniy ertasigayoq qasidani bitib kelgach, hojib uni o'qib, qarshisida tengi yo'q shoir turganini bilib, uni Chag'oniyon dashtiga, tamg'alash marosimiga olib boradi. Chag'oniyon amirining izzatigasazovor bo'lib, huzurida bir necha yil xizmat qilgach, amir uni G'azniga, sulton Mahmud xizmatiga jo'natadi.

Ko'klam kelib, tevarakka binafsha, atirgul va gullagan og'och

islari yoyilgani bois, Farrux Seyistoniy bahor bobida shunday go'zal bir vasf o'qidiki, hammaolqishlab yubordi:

*Bahor kelmish, borib aytingki, zora ul guluzor kelsa,  
Umidim bor manim, navmidligim ham garchi bor, kelsa.*

*Magar ko'nglingga yolg'on va'da har kunda hazor kelsa,  
Umidvormen vale, koshki, umidim ustuvor kelsa.*

*Labing so'z aytsa, ko'nglim ul guharga xushtor kelsa,  
Qo'lidan ne kelur, ko'nglim magar devonavor kelsa.*

*Yana qo'rqarmanam, bo'sam sanga nogah malol kelsa,  
Ki, bilmassan, labimdan anfosi shahriyor kelsa...*

Farrux Seyistoniydan so'ng navbat Garchuziyga keldi:

*Zafarlar izma-iz kelmish, zamon kulgay, zamon masrur,  
Adl barhaq-da, haq barhaq, hama masrur, chunon masrur.*

*Xaloyiq ittifoq o'l mish, jafolar emdi yo'qdurmish,  
Hama miftohlarin dunyo buyuk shohiga topshurmish.*

*Aning bo'lsin sharaf-shonlar, karamlar ham aning bo'lsin!  
Axir, shohlar hayot berguvchi yog'murlar kabidur chin!*

*Yarashmish qanchalar shohlik! Yarashgay iftixor etsak!  
To'lin oy, chashmayi ilhom va rahbar-rahnamo sergak.*

*Abrdur ul, huda-behuda guldurlab haros solmas,  
Arab birla ajam – andin kutar yog'mur umidvor, bas.*

*Muqimdur ul, vale fozilligi yoyin-da xulq bois,  
Buyukmish xulqi bois, vasf eturlar oni shul bois.*

*Tabassumlar qilar Yer qalbi vas'idin va bog'lar ham  
Ayo iqboltalab! Haq taolo bo'lsun senga hamdam.*

*Ayo Garchuziyi davron, mana, Haq yo'llamish nusrat.  
Muborakbod! Muborakbod! Sano aytgil, sanolar ayt...*

Garchuziydan so'ng barcha jonlanib qoldi, chunkimajlisning eng qiziq joyi – hajvgaga navbat kelgan edi. O'rtaga qaddi egilib qolgan keksa shoir Abu Talha chiqdi. Abu Talha ikki baytlik vasfiyasini tugatar-tugatmas, o'tkir so'zliligi bilan dong taratgan Abu Dalk unga qarab, bayt o'qidi:

*Ayo sho'rlik Abu Talha, na nomus, na uyoting bor –  
Yoshing yetmishga yetti, lek soqol chiqmas, emasmu or?*

Davra kulib yubordi, chunki Abu Talha ko'sa edi. Abu Talha javob qildi:

*Axir, yetmish – biron manzilga yetmak va ezib so'ngak,  
Tafakkur, she'r tabibindan shifo topmak va olmak dalk.*

*Yetibman bir makon-ko'shkka, kumush tomli va naqshinkor,  
Desam, changal urib chiqdi vahshiy bir besharafjondor.*

Yana kulgi ko'tarildi, buning sababi – Abu Dalkning yana bir laqabi "Vahshiy" bo'lib, Xurosonda suyakni ezib uqalashni esa, "dalk" der edilar. Bu bilan Abu Talha raqibining shoirlarga xos bo'limgan taxallusiga va fe'lining beqarorligiga ishora qildi.

Abu Dalk:

– Na chora, Abu Talha, isming jismingga monand, yetmishing talh kabi achchiq bo'libdi. Keksaliging tufayli seni emas, ibn Jayhonni hajv qila qolaman, chunki uning jayhi sening talhingdan ham yoqimsizroq, deb, martabadorlardan ibn Jayhonni shunday hajv tig'iga oldiki, ibn Jayhon sho'rlik qip-qizarib ketdi:

*Rizo bo'l xoh, g'azablan yo, ichurman ont:  
Qorovul ham bo'lommassan, ibn Jayhon.*

*Taajjublar! Seningdek bo'limgurni gar  
Hukmdor aylamishlar el, taajjublar!*

*Adl rasmini tutsaydi bu xalq, oyo  
Bo'lomasding ko'cha jorubkashi hatto.*

Lamg'oni esa, ibn Jayhonning yonini olib, shunday dedi:  
*Bu dunyo juft, baqo birla fanodan ul iborattur,  
Jahon ahliga shul ikki kifoyatli imorattur.*

*Jahon ahli u dunyoga ravona bo'lmagiga lek  
Abu Dalkning o'zi yolg'iz kifoyattur, kifoyattur.*

Abul Hasan Musofir dedi:

– Bu so'zlaringizni bas qiling, zero, keksalik yoshlikdan azizroq turur. Bu keksalar ko'rgan ishlar siz maqtayotgan yoshlarning yetti uxbab tushiga ham kirmaydi.

– Shunday deb, bayt o'qidi:

*Manim qavmim qilur ta'na, sochim tongday oqarmishtur,  
Haroratdin darakdur tong – faqirni aylangiz ma'zur.*

Abul Farah al-Hamadoniy bunga javoban arabchalab dedi:

*Yuzim uzra soqol oqi uyolturmish meni shoyon.  
Uyolturmish meni... ammo na hojat aylamak "voy"lar.  
Tuyog'inda magar oq halqa yo'q ersa kumush oydek,  
Axir, maqtalmagaydurlar qaro tundek go'zal toydar.*

*Sochim oqdur, belim doldur – vale ortdi dilovarliq,  
Axir, o'q ham nishonni teshmagay, dol bo'lmasa yoyslar.*

Shundan so'ng yana guloblar va sharbatlar tortildi. Barchaning kayfiyatini a'lo, ud va barbat sadolari mavjlanib, tungi bog' tarovatini madh etayotganga o'xshardi.

Vazir Abul Hasan olimlarni tanishtirish vaqtin kelganiga ishora qilgach, sultonning ijozati bilan, bu ishni as-Saolibiydan boshladi. As-Saolibiy to'pdan ayrilib, Mahmud G'aznaviyga va raiyatga ta'zim qilgach, sulton dedi:

– Sening Abu Ali Simjuriy va Foiqning xiyonati vaqtida aytgan qasidang qulog'imizga yetib kelgan. O'sha qasidani o'zingdan eshitishni istaymiz.

As-Saolibiy taraddudda qoldi. Chunki qasida arab tilida bitilgan bo'lib, undagi teranlikni bir qancha kishidan boshqalar tushunib yetishi dargumon edi. Shu sababli u izzat-ehtirom bilan ilk baytlarni arabchada o'qib, qolganining mazmunini turkiyda izohlashga ruxsat so'radi.

*Alam taro muz 'amayni amlaku asrina,  
Yusihu bihim li-l-mavti va-l-qatli saiha.  
Fa Nuhu ibni Mansurin havathu yadu-r-rado,*

*Alo hasarotin zaminatha-l-havaniha.*

Hojib Istaroiy boshini mastona chayqab “Ofarin” degan edi, yig‘ilganlar orasida yana kulgi ko‘tarildi, chunki Istaroiy arabcha bilmasligi barchaga ayon edi. Sulton Mahmud ham kula-kula, ruxsat berdi.

*Ko‘ringizkim, ikki yildir hudaychi-jarchilar, hayhot,  
Zamon podsholarin mavtin xabar aylab solurlar dod.*

*Halokat qo‘llari Nuhi ibn Mansurga ham yetdi,  
Uni, yo hasrato! – hasratga, g‘amga mubtalo etdi.*

*Saraxs jangida Mansur ham – bu ne kulfat, bu ne  
sho‘rish! – Hama sarvat bila mulki ketib qo‘ldin, halok o‘lmish.*

*Ko‘ziga tortdilar milni, musibatlar qiyom turdi,  
Asiru notavon o‘lgach, barodarlar yuzin burdi.*

*Aziz Billoh – Misr sultonini ham o‘z yo‘liga ketdi,  
Jibol voliysi Faxruddavлага mag‘lubiyat yetdi.*

*Va Jurjon hokimi do‘stu muqarrab erdi, oni ham  
O‘limning ko‘zları hushyor kuzatdilar vale har dam.*

*Alar may kosalab ichdi, magar daryo edi qonlar,  
Sharobi margni ham no‘s shayladilar birga so‘ng onlar.*

*Yana Xorazmishohning chehrasini badburush aylab,  
Anga ham ro‘zi motam oqibat yetdi qilich qayrab.*

*Abu Ali ibn Simjur zaminni toptamish borho,  
Balolar yetgunicha to, halokat yutgunicha to.*

*G‘ajib sharru balolar oni ham, ov fursatida gah  
Ko‘ringuvchi kasofat qush ko‘rindi unga ham nogah.*

*Va Bustning sohibi sherdek dilovar erdi, dov erdi,  
Va Sharqu G‘arb kalidi qo‘lida, sohib safo erdi.*

*Qaro g‘or o‘ldiyu ro‘zg‘or, uni ham komiga tortdi,  
Qadar kuttirmadi, taqdir kitobin bo‘yla zud yopdi.*

*Yelardi sel kabi otlar shitobu shahd ila harchand,  
Va fillar ham sayr qilguvchi tog‘larga bo‘lib monand.*

*Sipohlarkim, sanoqda qum sanog‘idan fuzun erdi,  
Ular sahroyu dashtni tangu tor bilgich quyun erdi.*

*Va o‘qlar tiyri ofatdek yog‘ildi, bo‘yla hol o‘ldi:  
Matonatli buvayhiylar balolarga duchor o‘ldi.*

*Va Juzjon hokimi dunyo-fano ko‘prigidan o‘tdi,  
Uning ham ilgidan oxir o‘lim tutdi, olib ketdi.*

*Kesildi rishtayi umri va lekin axta Foiqqa  
Kishi topilmadi motam tutarga, navha urmoqqa.*

*Iki yilda alar bari adam-yo‘qlik tomon uchdi,  
O‘lim burguti hurkitdi – hama qushlar qulab tushdi.*

*Somoniylar ulug‘lik bobida tog‘larga teng erdi,  
Bu dunyo kori vajhidan vale tufrog‘u yer o‘ldi.*

*Bu kechmish-sarguzashtlardan, nahot, hech topmading  
pandlar?*

*Bular ibratdurur, ore, bularning bori ibratlar.*

*Xasis bo‘lma, bu dunyo jilvasi, moliga dil berma,  
Ayol o‘z shavharin mahv etsa, sen unga ko‘ngil berma.*

*Suxandonlar O‘zining vasfini aytur magarkim xo‘b,  
Mening vasfim, qasam bo‘lsin, Uning shoistasidir ko‘b!*

*Sharob nedur? Misoli xush olib uchguvchi markabdur,  
Vale oxir ajal ilgiga topshirgay kishini ul.*

*Ko‘mirning otashi yanglig‘ ko‘zingga dilbaru zebo,  
Magar ul jazbalar ichra necha irkit nihon ammo...*

– Ofarin! – dedi sulton Mahmud. – Ajab nafosatli tarix bitibsan! Sen “Nodir so‘zlar va suhbatlar” hamda “Mubhij” degan asarlaringni Shamsulmaoliyga, “Latoif”ni esa Ma‘munga bag‘ishlaganiningni eshitganmiz. Istagimiz shu: nodir qalaming bilan inimiz Amir Abu Muzaffar ixtiyorida bo‘lgaysan. Maktub yozish borasidagi mahorating barchaga ma’lum, kotiblarimizga o‘z san‘atingni o‘rgatgaysan. Bundan tashqari, mukammal bir tarix kitobi yozishingni, haqiqatni to‘la va ro‘y-rost ifodalashingni

hamda bizningadolat uchun qilgan harakatlarimizni tarixga muhrlashingni istaymiz. Baski, bu borada “Shohnoma” yozsang ham bo’ladi.

Sultonning bu so’zi Saolibiy bundan bu yog’iga Hirotda istiqomat qilishi kerakligini bildirardi. Saolibiy shohga minnatdorlik bildirib, olimlar to’piga qaytdi. Shodligining sababi – bu tayinlovdan u, sultonninginisi Amir Abu Muzaffar Sabuktegin farzandlariga murabbiylik qilishing kerak, degan ma’noni uqdi.

Navbat Abu Rayhonga keldi.

Bizga, sening ta’rifing yetib keldi, – dedi Mahmud G’aznaviy.  
– Sen dunyo aylanasini o’lchab, Yer Quyosh atrofida aylanadi, degan emishsan. Lekin, bundan ham avval, seni qarmatiy deb ayblaydiganlarga qarshi o’zingni himoya qilib, joningni asrab qolishingga yaraydigan biron- bir hujjating bormi?

Barcha jim bo’lib qoldi. Agar Abu Rayhon shu on birlgina nojoiz so’z aytса, uning hayot qushining pati yulinib, bo’yni qirqlishi turgan gap edi.

- Bor, saodatli sulton, – deb javob qildi Abu Rayhon.
- Faqir “Oq kiyimliklar va qarmatiylar haqida so’z” degan kitobimda ularning jinoyatlari haqida so’z yuritganman.
- U asardan biron kimsaning xabari bormi?
- Men u asarni o’qiganman va Abu Rayhonning to’g’ri so’zlaganiga guvohman, – dedi shayx Mamshod Dinovari.

– Abu Rayhon botiniy, ismoiliiy, tohiriy yoki qarmatiy deb atalgan u kimsalarning va ularning rahnamosi Abu Tohirning qilmishlarini to’la izohlab bergen.

– Allohga qasamki, men yer yuzida u buzg’unchilardan biron ta kishini qoldirmayman! – dedi Mahmud G’aznaviy.  
– Shuningdek, biron-bir kishi islam sofligiga zid bir fikr aytса, uni fil oyoqlari ostiga tashlashlarini buyuraman. Xo’sh, ayt-chi, dunyo aylanasini o’lchash yoxud yer Quyosh atrofida aylanishini isbotlash mo’mirlarga qanday naf keltiradi?

- Bu, yer yuzining qaysi joyida bo’lmасин, kishilar Makkaga yo’nalishi va unga tomon olib boradigan yo’l- larni va masofalarni bilib olishlari uchun qo’l keladi, – dedi Abu Rayhon.
- Sayyoralar va Quyosh harakatini esa “Kullun fi falaki yasbaxun” oyati bilan dalillay- man. Unga ko’ra, Yer ham, Quyosh ham falakda

suzib yuradi.

– Sening bu ishlaring munajjimlik va folbinlikkayo'l ochib berishi mumkin, – dedi vazir al-Maymandiy.

– Munajjimlik borasida mening bir mulohazam bor, agar aytishga izn berilsa...

– Sen bu yerda o'z xohishing bilan emas, mening istagimga ko'ra so'z ayta olasan, – dedi Mahmud G'aznaviy.

– Seni huzurimizga chorlashimizdan murodimiz shuki, Hindiston fathida qo'shinimiz bilan birga bo'lishingni istaymiz. Modomiki, qadimgi xalqlardan qolgan osori atiqalar borasida kitob yozibsan, hindlarning urf-odatlari, iqlimi, biz fath etgan shahar-qishloqlari, ularning kishilari egallagan bilimlarni bizning zamona bilimlari bilan taqqoslab, foydali yoki foydasizga ajratan, keraklilarini taqdim qilasan va keraksizlarini belgilaysan.

Qolgan ishlarni Abul Hasan bilan kengashasan.

Shu bilan shoh va olim o'rtasidagi so'zlashuv nihoyasiga yetdi.

Navbat tabib Xammorga keldi.

Bu kishi masihiy bo'lib, shu boisdan rido kiyib, zunnor taqib yurardi.

– Muso Kalimulloh davrida sehr keng yoyildi. Iso Kalimatulloh zamonasida tabiblik, Rasuli akram Habibulloh zamonasida esaadolat va diyonat qaror topdi, – dedi Amir Mahmud. – Bilim ahlidan ekaning uchun senga ko'p so'zlashning hojati yo'q. Ahli kitoblardan bo'lganining uchun hurriyatingga ham daxl qilinmaydi. Biroq, sen Shayx Mamshod va Shayx Junayd bilan so'zlash. Bizlar Musoni ham, Isoni ham Tangrining elchisi deb bilamiz, modomiki, Allohning elchilari sulolasidagi har bir payg'ambarga imon keltirish vojib esa, hazrati Muhammad dinini ham yetarlicha tadqiq qilgandirsan. "La ikraha fid-din" qavliga ko'ra, seni majburlamaymiz va zug'um qilmaymiz, aksincha, bilimlarining izzatlaymiz va ko'maklashamiz. Dorul-harb<sup>1</sup> yurishlarimiz vaqtida qo'shinga qo'shilishingni istaymiz. Shuningdek, kutubxonamizdagi kitoblarni taqqoslab, ularga tabobat ilmidagi yangiliklarni qo'shib, mukammal bir risola yaratishingni istaymiz.

---

<sup>1</sup> O'sha davrda Hindiston "Dorul-harb", ya'ni "urush makoni" deb atalgan.

Mansur Ibn Iroq bilan esa sulton qisqa so'zlashdi.

Sening bilim va ta'lim yo'lidagi ishlaringdan xabardormiz. Modomiki, shu ulug' yoshga kiribsan, seni har turli vazifalardan ozod qilib, izzatinggga mos maosh tayinlagaymiz. Magar o'z xohishing bilan yana ilmishida davom etadigan bo'lsang, u holda mamnun bo'lamiz. Avvaldan bir qancha olimlarga murabbiylilik qilgan emishsan, endilikda ham murabbiyligingda davom et va haqqimizga duo qil.

– Saodatli shoh to'g'ri aytdilar. Yangi nasl yetishib kelmoqda, bilimlarimni ularga o'rgatsam va oxirat tadorigini qilsam, bu men uchun eng a'lo ishdir.

– Nasllar, nasllar... – dedi Amir Mahmud, o'ychan. – Bizlar bu yoqda mulk talashib, jangu jadallarda yursak... Ularga to'g'ri ilmni kim o'rgatsin?

Sulton nima xayolga borganini bilib bo'lmadi. U o'rnidan turib, "Siz majlisni istaganingizcha davomettiring" deya, bog'dan chiqdi. Shayx Mamshod va nadimlar uning ortidan ergashdilar. Ayni paytda, bir-ikki tomchilab turgan yomg'ir birdaniga jalaga aylandi, shatir-shutir yog'ib, daraxt gullarini yerga qorishtirdi. Ochiq maydondagi shoirlar va olimlarning kimi ayvon ostiga, kimi ravoq tomonga chopishdi, shu bilan, zarofat majlisi to'satdan barham topdi-qo'ydi.